



TURIZM YO'NALISHI TALABALARINING STRATEGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Normetova Nafosat Shonazar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21836431>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2026

Accepted: 22nd July 2026

Published: 31st July 2026

KEYWORDS

strategik kompetensiya, turizm ta'limi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, mikrota'lim, kasbiy simulyatsiya, muloqot strategiyalari, raqamli rolli o'yin, kasbiy muloqot.

ABSTRACT

Mazkur maqolada turizm yo'nalishi talabalarining strategik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Turizm sohasidagi kasbiy muloqot talabalardan nafaqat lingvistik bilimlarga ega bo'lishni, balki kommunikativ uzilishlarni bartaraf etish, o'zaro anglashuvga erishish, nutqiy ifodalarni turistlarning ehtiyojlariga moslashtirish hamda oldindan bashorat qilish qiyin bo'lgan xizmat ko'rsatish vaziyatlarida maqbul yechimlarni tanlash qobiliyatini ham talab etadi. Maqolada kommunikativ kompetensiya, muloqot strategiyalari, turizm ta'limi va texnologiyalar bilan boyitilgan ta'limga doir ilmiy tadqiqotlarni sifat jihatidan mazmuniy tahlil qilish, qiyosiy tahlil hamda konseptual sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolada strategik xabardorlik, mikromazmun asosidagi tayyorgarlik, strategiyani modellashtirish, kasbiy muloqotni simulyatsiya qilish va refleksiv transferdan iborat integratsiyalashgan ta'lim ketma-ketligi taklif etilgan. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan alohida raqamli vositalar sifatida emas, balki kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tizimining o'zaro bog'langan tarkibiy qismlari sifatida foydalanish lozimligi asoslangan.

Kirish. Xalqaro turizmning rivojlanishi turli lingvistik, madaniy va ijtimoiy muhit vakillari bilan samarali muloqot qila oladigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Turizm sohasi mutaxassislaridan xizmatlarning mazmunini tushuntirish, yo'nalish ko'rsatish, turistik manzillarni tavsiya etish, buyurtma va rezervatsiyalarni boshqarish, shikoyatlarga javob berish hamda kutilmagan muammolar yuzaga kelganida muqobil yechimlarni taklif qilish talab etiladi. Shuning uchun ularning kasbiy samaradorligi nafaqat egallagan axborot va bilim hajmiga, balki lingvistik va nolingvistik resurslardan strategik jihatdan foydalanish qobiliyatiga ham bog'liq.

Turizm sohasidagi kasbiy muloqot ko'pincha noaniqlik va oldindan to'liq rejalashtirib bo'lmaydigan vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Rejalashtirilgan ekskursiya bekor qilinishi, turist xizmat ko'rsatish shartlarini noto'g'ri tushunishi, rezervatsiyada xatolik yuzaga kelishi yoki mijoz xizmat sifatidan noroziligini bildirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda oldindan yodlangan dialoglar va standart nutqiy ifodalar yetarli bo'lmasligi tabiiy. Shu bois turizm yo'nalishi talabalari murakkab mazmunni boshqa shaklda ifodalash, aniqlashtiruvchi savollar berish, ma'lumotni tasdiqlash, javobni rejalashtirish uchun vaqt yutish, samarasiz izohni qayta shakllantirish hamda nutqni muayyan turistning ehtiyojlariga moslashtirishni o'rganishlari zarur.

Kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyati strategik kompetensiya bilan bevosita bog'liq. M. Canale va M. Swain strategik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilab, uni kommunikativ uzilishlarning o'rnini to'ldirishga xizmat qiluvchi verbal va noverbal strategiyalar bilan bog'laganlar. Ularning modeliga ko'ra, samarali muloqot faqat grammatik aniqlik bilan cheklanmaydi. So'zlovchi lingvistik bilimlarning yetishmasligi yoki nutqiy faoliyat jarayonidagi cheklovlar natijasida yuzaga keladigan muammolarni boshqarish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Strategik kompetensiyaning rivojlantirish zarurati turizm ta'limida ayniqsa dolzarbdir. Chunki turizm sohasidagi muloqot maqsadga yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatishga asoslangan va madaniyatlararo xususiyatga ega. Turizm sohasida tildan foydalanishga doir tadqiqotlar og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalarining muhimligini ko'rsatib, kommunikativ qiyinchiliklarni turizm xodimlari faoliyatidagi jiddiy muammolardan biri sifatida qayd etadi.

An'anaviy auditoriya mashg'ulotlari talabalarga kasbiy terminologiya va grammatik tuzilmalarni o'rgatishi mumkin. Biroq ular doimo o'zgaruvchan va oldindan bashorat qilish qiyin bo'lgan kommunikativ vaziyatlarga javob qaytarish uchun yetarli imkoniyat yaratmaydi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari talabalarga nazorat qilinadigan, ayni paytda real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan sharoitda muloqot jarayonlarini kuzatish, mashq qilish, takrorlash va baholash imkonini berishi orqali mazkur cheklovni bartaraf etishi mumkin.

Shu bilan birga, texnologiyaning pedagogik qiymati faqat raqamli qurilmalar yoki onlayn platformalarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Texnologik resurs aniq belgilangan kompetensiya bilan bog'langanida, talabaning faol ishtirokini talab qilganida va egallangan bilimlarni kasbiy amaliyotga ko'chirish imkoniyatini yaratganida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mikrolim, simulyatsiya, raqamli rolli o'yinlar, jiddiy o'yinlar, keys-stadi asosidagi mashg'ulotlar va Living Lab loyihalarini ular rivojlantiradigan muayyan strategik xatti-harakatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar sharhi. Strategik kompetensiyaning nazariy talqini kommunikativ kompetensiya modellaridan kelib chiqadi. M.Canale va M.Swain strategik kompetensiyaning kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi yoki nutqiy faoliyat bilan bog'liq cheklovlar natijasida yuzaga keladigan kommunikativ uzilishlarni bartaraf etuvchi verbal va noverbal muloqot strategiyalarini bilish hamda ulardan foydalana olish qobiliyati sifatida ta'riflaganlar. Mazkur nuqtayi nazarga ko'ra, strategik kompetensiya so'zlovchiga tegishli lingvistik shaklni darhol qo'llay olmagan taqdirda ham muloqotni davom ettirish imkonini beradi.

M. Celce-Murcia, Z. Dörnyei va S. Thurrell keyinchalik diskursiv, lingvistik, harakatga yo'naltirilgan, sotsiomadaniy va strategik kompetensiyalardan tashkil topgan pedagogik modelni taklif etdilar. Ularning modelida strategik kompetensiya boshqa tarkibiy qismlar bilan o'zaro aloqaga kirishib, so'zlovchiga ma'noni muvofiqlashtirish, kommunikativ muammolarni boshqarish va mavjud resurslardan samarali foydalanishda yordam beradi. Shu

nuqtayi nazardan, strategik kompetensiyani lingvistik, sotsiomadaniy va diskursiv bilimlarning amaliy qo'llanilishini tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin etish mumkin.

Z. Dörnyei va M. L. Scott tomonidan ishlab chiqilgan muloqot strategiyalari tasnifi mazkur tushunchaning mazmunini yanada kengaytirdi. Ularning tasnifida kommunikativ muammolarni bevosita hal qilishga qaratilgan to'g'ridan to'g'ri strategiyalar, muloqot uchun qulay sharoit yaratadigan bilvosita strategiyalar hamda suhbatdoshni kommunikativ jarayonga jalb etishga asoslangan interakcion strategiyalar ajratiladi. Mazkur strategiyalar sirasiga tushunchani tavsiflash orqali ifodalash, taxminiy nomlash, xabarni qayta tuzish, takrorlashni so'rash, aniqlashtiruvchi savollar berish, tushunilgan ma'lumotni tasdiqlash, o'z-o'zini tuzatish va suhbatdoshdan yordam so'rash kiradi.

Muloqot strategiyalarini bevosita o'rgatish imkoniyati xorijiy tillarni o'qitishga doir tadqiqotlarda ham keng muhokama qilingan. Z. Dörnyeining fikricha, strategiyalarni aniq va maqsadli o'rgatish o'quvchilarning mavjud kommunikativ resurslar haqidagi xabardorligini oshiradi hamda ulardan tizimli ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Strategiyalarni o'rgatish faqat tayyor nutqiy ifodalar ro'yxatini taqdim etish bilan cheklanmasligi kerak. Talabalar kommunikativ muammoning mohiyatini, tanlangan strategiyaning vazifasini va undan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirni anglashlari zarur.

O'zbek pedagog olimlari tomonidan ham kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarini o'zaro bog'liq holda loyihalashga asoslangan yaxlit pedagogik jarayon sifatida yoritadilar. Olimlarning tadqiqotida pedagogik texnologiyalar taraqqiyoti, ta'lim nazariyasining muhim muammolari, pedagogik jarayonni oldindan loyihalash hamda zamonaviy metodlardan maqsadli foydalanish masalalari tahlil qilingan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, turizm yo'nalishi talabalarining strategik kompetensiyasini rivojlantirishda mikrota'lim, simulyatsiya, raqamli rolli o'yin va keys-stadi texnologiyalarini alohida mashg'ulotlar shaklida emas, balki aniq maqsad, kasbiy mazmun, faol topshiriq, qayta aloqa va baholashni qamrab olgan izchil pedagogik tizim sifatida tashkil etish lozim. Bunday tizim talabalarning nazariy bilimlarni kasbiy-kommunikativ vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashi, muammoni tahlil qilishi va tegishli muloqot strategiyasini mustaqil tanlashiga xizmat qiladi.

Turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash masalasi I.S. Tuxliyev va B.Sh. Safarovning ilmiy-metodik qarashlarida ham yoritilgan. Mualliflar turizm ta'limining muhim vazifasi sifatida malakali, ijodkor, tashabbuskor, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan hamda yangi texnika va texnologiyalarga tez moslashadigan kadrlarni tayyorlash zaruratini ta'kidlaydilar. Shuningdek, turizm fanlarini o'qitishda talabalarning faolligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi muammoli savollar, amaliy mashqlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanishga ustuvor ahamiyat beriladi. Mazkur qarashlar turizm yo'nalishi talabalarida strategik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Chunki kasbiy muammoni mustaqil hal qilish, o'zgaruvchan vaziyatga moslashish, muqobil yechimlarni baholash va samarali qaror qabul qilish strategik kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu jihatdan zamonaviy ta'lim texnologiyalari talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash, ularning kommunikativ moslashuvchanligi va mustaqil strategik faoliyatini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari mazmunli kasbiy muloqotni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday yondashuvlardan biri mikrota'lim bo'lib, unda ta'lim mazmuni qisqa, aniq maqsadga yo'naltirilgan va mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan o'quv birliklari orqali taqdim etiladi. Tizimli tadqiqotlar mikroo'quv birliklari yaxlit ta'lim ketma-ketligiga mazmunan integratsiya qilinganida mikrota'lim talabalarning faolligi, o'zlashtirish

samaradorligi va ta'lim resurslaridan moslashuvchan foydalanish imkoniyatini oshirishini ko'rsatadi.⁹

Strategik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida mikrota'limdan har bir mashg'ulotda bitta kommunikativ muammo yoki strategiyani o'rgatish uchun foydalanish mumkin. Masalan, qisqa videolavhada mijozning shikoyatiga berilgan samarasiz javob namoyish etilishi, infografikada aniqlashtirish strategiyalari tushuntirilishi, interaktiv topshiriqda esa talabadan muqobil javob variantini tanlash yoki mustaqil shakllantirish talab qilinishi mumkin. Bunday maqsadli mikroo'quv birliklari talabalarni murakkab kommunikativ amaliyotga tayyorlaydi.

Simulyatsiyalar va raqamli rolli o'yinlar talabalarga mazkur strategiyalarni real kasbiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qo'llash imkonini beradi. Oldindan belgilangan dialogni takrorlash o'rniga talabalar vaziyatni tahlil qiladilar, kommunikativ muammoni aniqlaydilar, maqbul strategiyani tanlaydilar va muloqot rivojiga qarab o'z javoblarini o'zgartiradilar. Bunday faoliyatlarning pedagogik ahamiyati xavfsiz ta'lim muhitini saqlagan holda noaniqlik va kutilmagan holatlarni yuzaga keltira olishida namoyon bo'ladi.

Yana bir muhim yondashuv Living Lab - "jonli laboratoriya" modeli bo'lib, u universitetdagi ta'limni real foydalanuvchilar, tashkilotlar va jamiyatdagi mavjud muammolar bilan bog'laydi. Turizm bo'yicha oliy ta'limga doir zamonaviy tadqiqotlarda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlaridan talabalarining o'zaro hamkorligi va real hayotiy muammolarni hal qilishiga asoslangan Living Lab modeliga o'tish masalasi tahlil qilingan. Bunday muhit hamkorlik, muloqot, innovatsion fikrlash va akademik bilimlarni turizm sohasidagi autentik muammolarga tatbiq etishga xizmat qilishi mumkin.

Tahlil qilingan adabiyotlar turli texnologiyalar turlicha pedagogik vazifalarni bajarishini ko'rsatadi. Mikrota'lim maqsadli tayyorgarlik va takroriy mashqlar uchun qulay bo'lsa, simulyatsiya hamda rolli o'yinlar strategiyalarni amalda qo'llashga, jiddiy o'yinlar muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishga, Living Lab esa bilim va ko'nikmalarni real kasbiy muhitga ko'chirishga xizmat qiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu texnologiyalar ko'pincha bir-biridan alohida holda o'rganilgan. Shu sababli ularni strategik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayonga integratsiya qilish masalasi qo'shimcha konseptual aniqlikni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash va konseptual sintez metodlariga asoslangan sifat xarakteridagi nazariy tadqiqot sifatida tashkil etildi. Kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya, muloqot strategiyalarini o'rgatish, turizm ingliz tili, mikrota'lim, simulyatsiya, jiddiy o'yinlar va Living Lab pedagogikasiga oid ilmiy nashrlar tahlil qilindi. Ilmiy manbalarni tanlashda ularning strategik kompetensiyani nazariy jihatdan ta'riflashga qo'shgan hisssasi, turizm sohasidagi kasbiy muloqotga tatbiq etish imkoniyati hamda texnologiyalar bilan boyitilgan ta'lim faoliyatining talabalar bilimi, ko'nikmalari va xatti-harakatlariga ta'sirini yoritish darajasi asosiy mezon sifatida belgilandi. M. Canale va M. Swain, M. Celce-Murcia, Z. Dörnyei va S. Thurrell, shuningdek, Z. Dörnyei va M. L. Scott tomonidan ishlab chiqilgan fundamental modellar CEFRda ifodalangan strategik va harakatga yo'naltirilgan tamoyillar bilan qiyoslandi. Mazkur nazariy qarashlar turizm bo'yicha oliy ta'limda kommunikativ tayyorgarlik va texnologiyalar vositasida kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy natijalar bilan o'zaro bog'langan holda tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida turizmga oid vaziyatlarda yuzaga keladigan kommunikativ muammolar, ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan strategiya turlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining pedagogik funksiyalari hamda strategik bilimlarni kasbiy faoliyatga ko'chirish uchun talab etiladigan shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratildi. Aniqlangan

texnologiyalar talabalarda strategik xabardorlikni oshirish, maqbul kommunikativ xatti-harakat modellarini taqdim etish, boshqariladigan takroriy mashqlarni tashkil qilish, oldindan bashorat qilish qiyin bo'lgan kasbiy muloqotni modellashtirish va refleksiyaning rivojlantirish imkoniyatlari asosida qiyoslandi. Olingan natijalar integratsiyalashgan ta'lim ketma-ketligi shaklida umumlashtirildi. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda bevosita pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazilmaganligi sababli, aniqlangan natijalarni keyinchalik turizm ta'limi sharoitida empirik tekshirishni talab etadigan tahliliy-pedagogik model sifatida baholash lozim.

Natijalar. Tahlil natijalari strategik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini turli ta'lim texnologiyalari o'zaro bir-birini to'ldiradigan bosqichli tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur texnologiyalarning dastlabki funksiyasi talabalarning kommunikativ muammolar va ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan strategiyalar haqidagi xabardorligini oshirishdan iborat. Turizm yo'nalishi talabalari ayrim strategiyalardan o'z-o'zidan foydalanishlari mumkin, biroq ular muayyan muloqot nima sababdan muvaffaqiyatsiz kechganini yoki qaysi muqobil javob samaraliroq bo'lishini har doim ham anglay olmaydilar. Qisqa mikrolim birliklari har bir mashg'ulotda bitta kasbiy muammoni taqdim etish imkonini beradi. Masalan, rezervatsiya mazmunining noto'g'ri tushunilishi, mahalliy madaniy hodisani izohlashdagi qiyinchilik yoki norozi mijozga nomuvofiq javob berish kabi vaziyatlar talabalarga taqdim etiladi. Talabalar mazkur holatni kuzatib, kommunikativ uzilish sababini aniqlaydilar va ehtimoliy yechimlarni qiyoslaydilar.

Ikkinchi muhim funksiya strategik xatti-harakatlarning aniq modellarini taqdim etishdan iborat. Kommunikativ muammoni aniqlaganidan so'ng talabalar tajribali so'zlovchining aniqlashtirish, qayta ifodalash, tasdiqlash, taxminiy nomlash, suhbat navbatini boshqarish yoki xatoni tuzatish strategiyalaridan qanday foydalanishini kuzatishlari kerak. Videolavhalar, izohlar bilan boyitilgan dialoglar, interaktiv infografikalar va o'qituvchi tomonidan tayyorlangan raqamli namoyishlar odatda tashqi tomondan kuzatish qiyin bo'lgan strategik jarayonlarni aniq namoyon etadi. Masalan, modelda turizm sohasi xodimining dastlab mijoz shikoyatini tan olishi, keyin aniqlashtiruvchi savol berishi, mijoz muammosini umumlashtirishi va maqbul muqobil yechim taklif qilishi ko'rsatilishi mumkin. Bunda maqsad dialogni to'liq yodlash emas, balki strategik qarorlarning ketma-ketligi va vazifasini anglashdan iborat.

Uchinchi funksiya maqsadli va takroriy mashqlarni tashkil etish bilan bog'liq. Mikrolim faoliyatida alohida strategiyalar ajratib olinib, turli qisqa vaziyatlarda bir necha marta mashq qilinishi mumkin. Talaba turli mijozlar uchun turizm terminlarini sodda shaklda qayta ifodalashi, mos aniqlashtiruvchi savolni tanlashi yoki notanish xizmat turiga doir qisqa izohni audio yoki video shaklida yozib olishi mumkin. Avtomatlashtirilgan yoki o'qituvchi tomonidan beriladigan tezkor qayta aloqa talabaning javobi tushunarli, kasbiy jihatdan maqbul va kommunikativ maqsadga muvofiq ekanini aniqlashiga yordam beradi.

Tahlil maqsadli mikromashqlardan so'ng bir nechta muloqot strategiyalarini integratsiya qilishni talab etadigan simulyatsiyalar va rolli o'yinlarga o'tish zarurligini ko'rsatdi. Real turizm muloqotida odatda faqat bitta muammo yuzaga kelmaydi. Mijoz shikoyatiga javob berish jarayoni faol tinglash, aniqlashtirish, empatiya bildirish, izohlash, muzokara olib borish va kommunikativ vaziyatni tiklashni talab qilishi mumkin. Kasbiy simulyatsiya vaqtida talabaga qaysi strategiyadan foydalanish lozimligi oldindan aytilmasligi kerak. Aksincha, u rivojlanayotgan vaziyatni mustaqil tahlil qilishi va tegishli javob strategiyasini tanlashi lozim. Boshqariladigan mashqdan noaniq va o'zgaruvchan muloqotga bunday o'tish strategik kompetensiyaning shakllanishida markaziy o'rin tutadi.

Keys-stadi asosidagi raqamli topshiriqlar va jiddiy o'yinlar talabalarga bir nechta ehtimoliy harakat hamda ularning oqibatlarini taqdim etish orqali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar mehmonxonada joylar sonidan ortiq rezervatsiya qabul qilingan vaziyat, ekskursiyaning bekor qilinishi, sayohat hujjatining yo'qolishi yoki madaniy me'yorlarga mos kelmaydigan talabga qanday javob berishni tanlashlari mumkin. Texnologik vosita har bir qarorning mijoz qoniqishi, xizmat sifati va muloqotning davom etishiga qanday ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Bunday faoliyatlar grammatik jihatdan to'g'ri javob suhbatdoshning hissiy holati, kutishlari yoki madaniy xususiyatlarini hisobga olmagan taqdirda kasbiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkinligini anglashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari hamkorlikka asoslangan texnologiyalar interaksion strategiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qilishini ko'rsatdi. Birgalikda bajariladigan onlayn keyslar, munozara platformalari, hamkorlikda yaratiladigan hujjatlar va o'zaro fikr bildirishga yo'naltirilgan topshiriqlar talabalardan o'z tanlovlarini asoslash, muqobil variantlarni muhokama qilish va umumiy yechim ishlab chiqishni talab etadi. Strategik kompetensiya ma'noni hamkorlikda shakllantirish jarayonini ham qamrab olganligi sababli, tengdoshlar o'rtasidagi muloqot individual kompensator strategiyalar bilan bir qatorda tasdiqlash, e'tiroz bildirish, aniqlashtirish va qayta ifodalash strategiyalarini mashq qilish imkonini beradi.

Living Lab faoliyati strategik kompetensiyaning auditoriya simulyatsiyalaridan real kasbiy va ijtimoiy muhitga ko'chirish bosqichini ifodalaydi. Talabalar mahalliy turizm tashkilotlari, gidlar, muzeylar, mehmonxonalar yoki tashrif buyuruvchilar guruhlar bilan hamkorlik qilib, mavjud kommunikativ muammoni tahlil qilishlari va amaliy yechim ishlab chiqishlari mumkin. Bunday loyihalar talabalardan real manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish, to'liq bo'lmagan axborot sharoitiga moslashish va olingan qayta aloqa asosida qarorlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Natijada lingvistik strategiyalardan foydalanish kasbiy mas'uliyat, jamoaviy hamkorlik va muammolarni hal etish bilan uyg'unlashadi.

Refleksiya barcha texnologiyalarda zarur tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ldi. Refleksiv baholash mavjud bo'lmaganida talaba topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin, biroq aynan qaysi strategiya samarali natija berganini anglamasligi ehtimoli mavjud. Raqamli portfoliolar, o'z-o'zini baholash shakllari, tengdoshlarning fikr-mulohazalariga asoslangan rubrikalar va yozib olingan faoliyatni tahlil qilish vositasida kommunikativ muammo, tanlangan strategiya, suhbatdoshning munosabati va ehtimoliy muqobil variantlar o'rganiladi. Refleksiya topshiriqlarni takroriy bajarish jarayonini ongli strategik rivojlanishga aylantiradi.

Tahlil natijalari zamonaviy ta'lim texnologiyalari mustaqil va bir-biri bilan bog'lanmagan faoliyat turlari sifatida qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligini ko'rsatdi. Qisqa video, onlayn test, rolli o'yin yoki raqamli o'yinning o'zi strategik kompetensiyaning shakllantirmaydi. Har bir texnologiya strategik xabardorlik va modellashtirishdan mustaqil kasbiy faoliyatga o'tishga qaratilgan izchil pedagogik jarayonda aniq vazifani bajarishi kerak.

Muhokama. Tadqiqot natijalari strategik kompetensiyaning kasbiy kommunikativ kompetensiyaning dinamik va amaliy tarkibiy qismi sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi. U faqat yetishmayotgan lug'aviy birliklarning o'rnini to'ldirish bilan cheklanmay, muloqotni rejalashtirish, interaksiyani boshqarish, ma'noni muvofiqlashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, kommunikativ xatolarni tuzatish va suhbatdosh xususiyatlariga moslashishni ham qamrab oladi. Mazkur keng talqin strategik kompetensiyaning lingvistik, diskursiv, harakatga yo'naltirilgan va sotsiomadaniy kompetensiyalar bilan o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqadigan pedagogik modellarga muvofiq keladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari strategik jarayonlarni talaba uchun kuzatiladigan va amalda mashq qilinadigan faoliyatga aylantirish imkonini beradi. Mikrota'lim maqsadli mazmun va

takroriy mashqlarni taqdim etishda ayniqsa samaralidir. Biroq ta'lim mazmunining haddan tashqari mayda qismlarga ajratilishi talabalarning alohida strategiyalar bilan yaxlit kasbiy faoliyat o'rtasidagi munosabatni anglashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli mikroo'quv birliklari yirik simulyatsiyalar va autentik topshiriqlar bilan uzviy bog'lanishi lozim.

Simulyatsiyalar, raqamli rolli o'yinlar va jiddiy o'yinlar qaror qabul qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq ularning pedagogik qiymati ishlab chiqilgan ssenariyning sifatiga bog'liq. Talabalar faqat tayyor matn yoki ssenariyni takrorlaganlarida strategik kompetensiyani emas, asosan talaffuz va xotirani mashq qiladilar. Strategik yo'naltirilgan ssenariy to'liq bo'lmagan axborot, kutilmagan o'zgarish yoki talabani mustaqil qaror qabul qilishini talab etadigan kommunikativ muammoni o'z ichiga olishi zarur.

Texnologiyalardan foydalanish jarayonida turizm muloqotining shaxslararo va madaniyatlararo xususiyati ham saqlanishi kerak. Avtomatlashtirilgan qayta aloqa lug'aviy yoki grammatik xatolarni aniqlashi mumkin, biroq u har doim ham empatiya, xushmuomalalik, madaniy muvofiqlik va javobning suhbatdosh hissiy holatiga ta'sirini to'liq baholay olmaydi. Shu sababli shikoyatlarni ko'rib chiqish, muzokara olib borish va madaniy jihatdan nozik vaziyatlarda o'qituvchi hamda tengdoshlarning qayta aloqasi muhim ahamiyatga ega.

Living Lab va autentik loyihalar universitet ta'limini turizm sohasidagi real manfaatdor tomonlar va mavjud muammolar bilan bog'lagani sababli bilim hamda ko'nikmalarni kasbiy faoliyatga ko'chirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq bunday loyihalarni amalga oshirish institutsional hamkorlik, yetarli vaqt va puxta ishlab chiqilgan axloqiy-me'yoriy shartlarni talab etadi. Shu sababli autentik loyihalarni talabalar dastlabki strategik xabardorlikka ega bo'lgan va boshqariladigan muhitda tegishli mashqlarni bajarganidan keyin joriy etish maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan ketma-ketlik turli texnologiyalarning afzalliklarini birlashtirish va ularning alohida cheklovlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Jarayon dastlab tushunarli va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyatlardan boshlanadi, so'ng kommunikativ noaniqlik bosqichma-bosqich oshiriladi va yakunda autentik yoki real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan vaziyat bilan tugallanadi. Mazkur izchillik kompetensiyaviy yondashuvning bilimlarni maqsadli kasbiy faoliyatga aylantirish tamoyiliga mos keladi.

Xulosa. Strategik kompetensiya turizm yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U talabalarga muloqotni davom ettirish, ma'noni o'zaro muvofiqlashtirish, lingvistik imkoniyatlarning cheklanganligini kompensatsiya qilish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish hamda nutqni turistlarning individual va madaniy ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Mazkur qobiliyatlarni faqat standart dialoglarni yodlash orqali samarali rivojlantirib bo'lmaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari strategik kompetensiyani rivojlantirish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Mikrota'lim maqsadli tayyorgarlik va takroriy mashqlarni tashkil etadi, raqamli modellar strategik jarayonlarni aniq namoyon qiladi, simulyatsiyalar va rolli o'yinlar mustaqil muloqotni rivojlantiradi, jiddiy o'yinlar qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, Living Lab faoliyati esa o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni autentik kasbiy muhitga ko'chirishga yordam beradi.

Mazkur texnologiyalarning samaradorligi ularning pedagogik jihatdan integratsiya qilinishiga bog'liq. Texnologiyalar strategik xabardorlik, mikromazmun asosidagi tayyorgarlik, modellashtirish, boshqariladigan mashq, kasbiy simulyatsiya, autentik transfer va refleksiv baholashni qamrab oladigan izchil tizim asosida tashkil etilishi lozim. Jarayonning barcha bosqichlarida kasbiy jihatdan dolzarb ssenariylar, talabani faol va mustaqil qaror qabul qilishi, mazmunli qayta aloqa hamda refleksiya ta'minlanishi zarur.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'qituvchi yoki yaxlit kasbiy ta'limning o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tizimini to'ldiruvchi pedagogik instrumentlar sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ular turizm sohasining kommunikativ talablariga tizimli ravishda moslashtirilganida, oldindan bashorat qilish qiyin bo'lgan kasbiy vaziyatlarga samarali javob bera oladigan, moslashuvchan, o'ziga ishongan va strategik jihatdan kompetent mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Almeida F., Simoes J. Exploring the role of serious games in developing competencies in higher tourism education // *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*. – 2021. – Vol. 29. – Article 100347.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
3. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications // *Issues in Applied Linguistics*. – 1995. – Vol. 6, No. 2. – P. 5–35.
4. Choe Y., Kim N. From the classroom to the Living Lab for developing competencies in tourism higher education // *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*. – 2024. – Vol. 35. – Article 100498.
5. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment—Companion Volume*. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
6. Dörnyei Z. On the teachability of communication strategies // *TESOL Quarterly*. – 1995. – Vol. 29, No. 1. – P. 55–85.
7. Dörnyei Z., Scott M. L. Communication strategies in a second language: Definitions and taxonomies // *Language Learning*. – 1997. – Vol. 47, No. 1. – P. 173–210.
8. Ho Y. Y. C. Communicative language teaching and English as a foreign language undergraduates' communicative competence in Tourism English // *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*. – 2020. – Vol. 27. – Article 100271.
9. Monib W. K., Qazi A. Q. and others. Microlearning beyond boundaries: A systematic review and a novel framework for improving learning outcomes // *Heliyon*. – 2025. – Vol. 11, No. 1. – Article e41413.
10. Prachanant N. Needs analysis on English language use in tourism industry // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*. – 2012. – Vol. 66. – P. 117–125.
11. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2006.
12. Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh. *Turizm asoslari: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Yangi nashr, 2012.